

## 35-Mavzu: Geodemografik vaziyatning mintaqaviy tiplari

### Reja:

1. Dunyo aholisi o'sishi tendentsiyalari
2. Aholi takror barpo bo'lishining hududiy tafovutlari
3. Geodemografik vaziyatning hududiy jihatlari

**Dunyo aholisi o'sishi tendentsiyalari.** Sayyoramiz aholisining soni bugungi kunda 7,6 milliarddan ortdi va demografik bashoratlarga kura dunyo aholisi xar yili 83 million kishidan ko'payib, 2030 yilda 8,6 mlrd, 2050 yilda 9,8 mlrd va 2100 yilga borib 11,2 mlrd ga etishi bashorat qilinmoqda. borar ekan<sup>1</sup>. Aholining bunday sur'at bilan ko'payishi butun er shari bo'yicha olibqaraganda, tashvishli emas, chunki xozirgi davrda dunyoda aholi zichligi o'rtacha 1 km<sup>2</sup> ga 48 kishini tashkil qiladi. Lekin er yuzida aholi bir tekis taqsimlanmagan, shunday joylar borki 1 km<sup>2</sup> ga 1000, 2000 va undan ortik kishi to'g'ri keladi va aksincha, 1 km<sup>2</sup> da 2-3 kishi yashovchi xududlar ham mavjud. Umuman olganda, dunyo aholisi bilan bog'liq qator muammolar demografik vaziyat bilan bog'liq va u aholi soni dinamikasi, joylashuvi, takror barpo bo'lishi va jinsiy va yosh tarkibi kabi jarayonlarda ifodalanadi.

Ta'kidlash joizki, dunyo aholisi soni dinamikasi, joylashuvi, tabiiy ko'payishi hamda irqiy tarkibi xaqidagi ma'lumotlarini o'z ichiga olgan dastlabki o'zbek tilkdagi risola respublikada aholishunos olim G.R.Asanov tomonidan 1969 yilda chop etilgan edi. Tabiiyki, o'tgan vaqt ichida dunyo aholisi soni dinamikasi va joylashuvida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, boshkacha kilib aytganda, bu ko'rsatkichlarning xar biri aloxida muammo tarzida gavdalanadi.

Aholi soni dinamikasi - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasining ajralmas qismidir. Har kanday xududni, davlatni yoki xalqni siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy jixatlarini o'rganish uning aholisini o'rganishdan boshlanadi. Aholi dinamikasining ko'rsatkichlari demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oila) va ularning shakllanish qonuniyatlarini bilishda, aholi siyosatini

---

<sup>1</sup><https://www.un.org/development/desa/en/news/population/world-population-prospects-2017.html>

ishlab chiqishda hamda xalqxo'jaligining rivojlanish dasturlarini tuzish uchun zarur ilmiy asos sanaladi. Er yuzasida inson ajdodining dastlabki vakillari (Homo Sapins) shakllanganidan to hozirgi davrga qadar aholi soni dinamikasida o'zgarishlar kuzatiladi. Ular dunyo davlatlarida turli omillar ta'sirida sodir bo'lish bilan bir qatorda, ba'zi muammolarga ham sabab bo'ladi.

Aholining joylashuvi, deganda esa insonlarning turli xududlar, davlatlar bo'yicha taqsimlanishi tushuniladi. Er shari aholi joylashuvida umumiy qonuniyatlar mavjud. Ular jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xar bir bosqichida o'ziga xos mazmunda shakllangan. Dunyo aholisi joylashuvidagi asosiy omil inson yashashi uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoit va biologik resurslardir. Fan va texnikaning rivojlanishi, shaharlarning paydo bo'lishi va ko'payib borishi, transport xizmatlarining shakllanishi ham dunyo aholisining joylashuvidagi asosiy omillardan hisoblanadi. Dunyo xududlari buylab aholi joylashuvi shu xududlarga xos aloxida qonuniyatlar asosida sodir bo'ladi. Mazkur qonuniyatlar xududning tabiiy sharoiti, boyliklari, biologik resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, urbanizatsiya darajasi, jahon mehnat taqsimotida tutgan o'zni kabi omillar zaminida shakllanadi. Aholining dunyo xududlarida joylashuvi xususiyatlari, omillari va muammolarini muntazam o'rganib borish mazkur xududlarda ishlab chiqarishni tashkil etish, rivojlantirish hamda jamiyatni xududiy boshkarishda muxim ahamiyat kasb etadi.

**Aholi takror barpo bo'lishining hududiy tafovutlari.** Er yuzasida aholi soni dinamikasi va joylashuvida bo'lgan o'zgarishlar, birinchi navbatda, aholining takror barpo bo'lishi (tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish jarayonlarining yig'indisi) bilan bog'liq. Aholining takror barpo bo'lishi er yuzidagi davlatlarda keskin farq qiladi. Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida bir gurux davlatlarda, hozirgi avlod vakillarining soni, kutilayotgan avlod vakillari sonidan birmuncha kamroq. Bunday holat mazkur davlatlarda kelajakda aholi sonining kamayib ketishiga olib keladi va qator demografik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning kelib chikishiga sabab bo'ladi. Ikkinchi gurux davlatlarda esa hozirgi avlod vakillarining sonidan kelajakda kutilayotgan avlodlar soni yuqori

bo'ladi. Bunday vaziyatda aholi soni ko'payib boradi. Aholining ko'payib borishi ham ba'zi davlatlarda qator iqtisodiy muammolarni bartaraf etish zarurligini taqozo etadi.

Aholining takror barpo bo'lishiga bevosita bog'liq holda uning jinsiy va yosh tarkibi ham shakllanadi. Aholining bugungi jinsiy va yosh tarkibi, kechagi aholi takror barpo bo'lishi xususiyatlarining natijasi, ertangi aholi takror barpo bo'lishining esa asosidir. Aholining jinsiy va yosh tarkibi dunyo davlatlarida turlicha shakllangan. Bir qator davlatlarda aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) salmog'iyuqori (40-50%), karyalar (65 va undan katta yoshdagilar) salmog'i past (7%dan kam) bo'lsa, boshka bir qator mamlakatlarda esa bolalar salmog'i past (15-20%) va karyalar salmog'i esa yuqori (7-30%) bo'ladi. Xar ikkala holat ham ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishda o'ziga xos muammolarni kelib chikishiga sabab bo'ladi. Aholining jinsiy tarkibi jahon davlatlarida ayollar va erkaklarning turmush tarzi, ijtimoiy xayotda tutgan urni, baxtsiz xodisalar, urushlar va migratsiya ta'sirida shakllanadi hamda o'zaro farqqiladi. Jinsiy mutanosiblik nikoh va oila munosabatlarning shakllanishida ijobiy axamyatta egadir.

Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida er sharidagi turli xalqdar (etnos), millataar, irkiy guruxlar soni dinamikasi va joylashuvida aholi takror barpo bo'lishi xususiyatlari, konsolidatsiya va assimilyatsiya jarayonlariga bog'liq holda ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lmokdakim, ular ko'pchilikning e'tiborini tortadi. Sayyoramizning XXI asrning birinchi yarmiga qadar bo'lgan demografik bashoratida dunyoning ba'zi xududlarida aholi soni sekinlik bilan ko'payib borishi, bazi xududalarida aholi soni ko'payishdan to'xtashi, yana bir gurux davlatlarda esa aholi sonining ko'payishi nisbatan jadalroq kechishi qayd etilgan. Xozirgi kunda dunyo aholisi sonining o'zgarib borishi bilan bog'liq global iqtisodiy, demografik va ekologik muammolar mavjud. Ularning echimi dunyo aholisi soni, tarkibi, joylashuvi va uning omillarini, xududiy xususiyatlarini atroflicha o'rganishii taqozo etadi.

Er sharida insonning paydo bo'lishi xaqida ilmiy adabiyotda turlicha qarashlar mavjud. Ko'pchilik antropolog olimlar fikricha, sayyoramizda bundan 5-7 million

yil avval insonning dastlabki ajdodlari (avstralopetiklar) Afrika va Osiyoning tropik va ekvatorial zonalarida yashaganlar. Keyinchalik 2-3 million yil ilgari avstralopetaklardan eng qadimgi insonlar - arxantropalar shakllangan va ular Sharqiy Afrikada istiqomat etganlar. Bundan 600-700 ming yil muqaddam insonning eng qadimgi ajdodi bo'lgan arxantropalar paleantropalarga, pitekantropalarga va neandertallarga aylanganlar va Janubi-Sharqiy hamda Janubi-Garbiy Osiyoga tarkalgailar. Nixoyat, bundan taxminan 40-50 ming yil ilgari insonning ongli (Homo Sapiens) ajdodlashakllangan. Ongli insonning paydo bo'lishi mezolit davriga to'g'ri keladi.

Aholi soni haqidagi ma'lumotlarga kura, eramizdan oldingi davrda er sharida bor-yo'g'i bir necha yuz ming kishi, birmuncha aniqroq ma'lumotlar bo'yicha esa eramizdan 7 ming yil oldin er sharida 10 millionga yaqin aholi yashagan va ular xar 1000 yilda taxminan 10-20 % dan ko'payib borgan xolos. Adoluni bunday sekin ko'payishi aholi o'rtasida o'lim xollarining yuqoriligi bilan izohlanadi. Ushbu davrda aholi o'rtasida o'limning umumiy koeffitsienta 50 % va undan yuqori bo'lgan, boshkacha qilib aytganda, xar 1000 aholidan 50 tasi xayotdan ko'z yumgan. Ayniqsa, bolalar o'limi yuqori bo'lgan. Aholi ochlikdan, kasalliklardan va qabilalararo bo'lib turgan to'qnashuvlardan ko'proq xalok bo'lgan. Aholining o'rtacha umr ko'rishini 20 yildan oshmagan.

Shuni aloxida qayd etish lozimki, jamiyat tarixida xar bir davrda aholining ko'payishi va rivojlanishi, o'sha davrning ishlab chiqarish usuli va munosabatlariga, turmush darajasiga, yashash sharoitlariga bevosiga bog'liq bo'lgan. Jamiyat rivojlanishining birinchi bosqichida er yuzi bo'yicha aholining ko'payishi juda sekin borgan. Aholi sonining ko'payib borishida va joylashuvida kabilalar joylashgan maskanlarning tabiiy sharoitlari, suv resurslari va iqlimi asosiy omil xisoblangan. Turli tabiiy ofatlardan ba'zi kabilalar qirilib kettan. Ayniqsa, sovuk iqlimli, qishi uzok davom etuvchi xududlarda aholi sovukdan, ocharchilikdan ko'plab xalok bo'lgan. Ana shu bois, Evrosiyoning shimoliy qismida aholi juda siyrak joylashgan. Amerika va Avstraliyada ham paleolit davrining oxirlarida juda kam aholi istiqomat etgan. Tabiiy sharoiti inson yashashi

uchun qulay, suv resurslari mavjud hududlarda, ya'ni O'rta dengiz atroflarida Shimoliy Afrika, Evrosiyo materigining janublarida esa aholi zichrok joylashgan.

Ibtidoiy jamoa davrida, aholining yashash sharoiti juda og'ir edi. Insonlar g'orlarda makon kilganlar. Tabiiy g'orlar odamlar uchun yakkayu yagona boshpana vazifasini o'tagan. Eng muximi qorin to'yg'azish va biror-bir joyda tunash bo'lgan. Ular ovchilik bilan kun kurishgan, tabiiy ofatlarga qarshi kurasha olmaganlar. Muxitning tabiiy ta'siriga ongli choralar qo'llay bilmasligi sababli, aholi o'rtasida o'lim ham yuqoribo'lgan. Ibtidoiy jamoa davrida aholining o'rtacha umr ko'rishi 20-25 yoshni tashkil etgan va ibtidoiy davr odamlari xozirgi davr odamlariga nisbatan 3-3,5 marta kam yashaganlar. Shunday bo'lsada, aholi soni sekinlik bilan ko'payib borgan.

Aholi ko'payishining asosiy sababi tug'ilishiing yuqori darajada (fiziologik imkoniyat darajasida) bo'lganligidir. Demak, bir tomondan insonning tabiiy ofatlar oldida ojizligi, o'zaro nizolari u ning kamayishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, tug'ilishning yuqori darajadaliqi aholi sonining ma'lum daraja- da ko'payib borishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy jamoa davrida Janubiy Osiyo, Evropaning janubiy qismlarida, Afrika qit'asida aholi nisbatan zich yashagan. Evrosiyo materigining shimoliy rayonlarida, Avstraliya va Amerika kitalarida aholi juda siyrak joylashgan.

Ushbu davrda dunyo aholisi soni juda sekin ko'paygan. Taxminan bundan 15 ming yil ilgari mezolit davrining boshida er kurrasida bir necha million aholi yashagan xolos. Neolit davrining boshida esa dunyo aholisining soni 10 millionga etgan. Aholining asosiy qismi Janubiy va Sharqiy Osiyoda, Afrika va Janubiy Evropada joylashgan. Evrosiyoning shimoliy qismida aholi deyarli yashamagan. Avstraliya va Amerika xududlarida ham juda kam aholi yashagan. Shimoliy va Janubiy Amerikada 100-200 ming kishi yashaganligi xaqida ma'lumotlar bor.

Ibtidoiy jamoa davrida tug'ilish juda yuqori darajada (1000 odamga nisbatan 45-50 ta) bo'lib, bu xol erta nikohlar va tartibsiz oila-nikoh munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan. Lekin ko'pchilik ayollar o'zlarining reproduktiv davrini to'la yashay olmaganlar. Ularning og'ir turmush sharoiti, tibbiy xizmatlarning yo'qligi

hayotdan juda erta ko'z yumishiga sabab bo'lgan. Ko'pchilik ayollar farzand ko'rish davrida xayotdan ko'z yumgan. Ushbu davrda nafaqat ayollar, bolalar, balki erkaklar o'limi ham yuqori edi. Ta'kidlab o'tganimizdek, ular ochlikdan, antisanitariya holatidan, qabilalararo to'qnashuvlardan, yovvoyi xayvonlar xujumlaridan, tabiiy ofatlardan va turli epidemiyalardan xalok bo'lganlar. Kadimda odamlar guruh-guruh qabila bo'lib yashagan. Ba'zi kulay tabiiy sharoitda yashagan kabilalarda aholi soni nisbatan tezrok o'sgan, tabiiy sharoiti noqulay joyda yashagan qabilalarda esa ochlik, kambag'allik tufayli aholi o'limi yuqori bo'lib, aholi soni juda sekin ko'paygan.

Insoniyat tarixida sug'orma dexqonchilikning rivojlanishi oziq-ovqatning ko'payishiga, aholi moddiy turmush sharoitining birmuncha yaxshilashiga olib keldi. Xususiy mulkning paydo bo'lishi sinfiy jamiyatga asos soldi. Ibtidoiy jamiyat bag'rida feodal ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boshladi. Dunyoda tsivilizatsiya markazlari paydo bo'ldi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tashkil topa boshladi. Sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar aholi o'rtasida o'lim xollarining kamayishiga, o'rtacha umr kurish davrining birmuncha o'zayishiga sabab bo'ldi. Natijada dunyo aholisining soni ko'paya boshladi. Qadimgi Misrda fir'avnlarda davrida 7 million, Vavilonda esa 4-5 million aholi yashaganligi ma'lum. Eramizning boshida dunyo aholisi 200-250 millionni tashkil etgan va ular ning 50 millioni Rim imperiyasida istiqomat etgan. Aholining yana 40-50 millioni esa Xitoy va Xindiston xududlarida yashagan. Shimoli-Farbiy Evropada esa aholi juda kam - 1 million atrofida bo'lganligi qayd etiladi.

O'rta asrlarda ham dunyo aholisining soni ko'payib bordi. Lekin aholining ko'payish sur'ati nisbatan sekin bo'lgan. Birinchi ming yillikning oxirida dunyo aholisining soni 250-300 millionni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi ming yillikning o'rtalarida bu ko'rsatkich 400-500 millionga etgan. Jumladan, Osiyoda 250 million, Evropada 65-80 million, Amerikada 30-50 million, aholi istiqomat qilgan. Ushbu davrda ba'zi davlatlarda bosqinchilik, urushlar, xo'jaliklar izdan chiqishi natijasida aholi sonining kamayib ketganligi ham kuzatiladi.

Aholi sonining ko'payib borishida jamiyatda ishlab chiqarishning mukammallashib borishi, sodir bo'lgan mehnat taksimotlari, ya'ni chorvachilik va dexqonchilikning rivojlanishi aloxida omil hisoblanadi. Eramizdan 7-8 ming yil oldin Yakin Sharq xududlarida juda ko'p qabilalar ovchilikdan chorvachilikka, dexqonchilik qilishga o'ta boshladilar. Xo'jalik yuritishdagi yangi sharoit qabilalardagi aholini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlashni yaxshiladi, oziq-ovqat zaxiralari yaratildi. Natijada aholining o'lim xollari nisbatan kamaydi, lekin turli epidemiyalar, xo'jaliklar orasida mavjud urushlar tufayli o'lim hamon yuqori edi.

Xo'jalik yuritishning yangi formasi sababli, qabilalarning bir joydan ikkinchi joyga muntazam ko'chib yurishi birmuncha barham toddi. Qabilalar dexqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishi natijasida o'troq hayotga o'ta boshladilar. Bu xol esa ayollar axvolining bir oz yaxshilanib, tug'ilishning ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Tug'ilishning ko'tarilishi esa dunyo aholisi sonining ko'payib borishiga olib keldi. Ushbu davrda erta nikohlar va ko'pbolalilik deyarli barcha aholiga xos bo'lgan. Lekin sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi bilan tug'ilishga salbiy ta'sir etuvchi ba'zi omillar ham shakllana boshladi. Masalan, kuldorlik davrida qullar, askarlar aholining takror barpo bo'lishi jarayonida ishtirok etmasdilar. Shuningdek, ba'zi diniy qarashlar, masalan buddizm, inson ruxini gunoxlardan ko'tarish maksadida, nikohsizlik va farzandsizlik holatlarini qo'llab-quvvatlandi.

Ishlab chiqarish kuchlarining yanada takomillashuvi aholi o'rtasida sinflar va davlat paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyat asta-sekin ibtidoiy tuzumdan kuldorlik davriga (sinfiy jamiyatga) o'tdi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xayoti rivojlana boshladi. Jamiyat taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar aholining ibtidoiy tuzum davriga nisbatan ancha tez edi. Buning asosiy sababi tug'ilishning yuqoriligidir. Tug'ilishning yuqoriligi esa o'z navbatida, ayollarning erta nikohga kirishi, tug'ilishning cheklanmaganligi hamda ko'pbolalilikni xalq, davlat va din tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bilan bog'liq edi. Lekin quldorlik tuzumi davrida aholi o'rtasida o'lim hollari ancha yuqori bo'lgan. Sababi, ko'pgina qishloq va

shaharlarda aholining juda zich joylashuvi va gigiena-sanitariya sharoitlarning yo'qligi tufayli yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligidir.

Aholi o'rtasida madaniyatning rivojlanishi, kadimiy tsivilizatsiya markazlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu madaniyat markazlari er kurrasining sug'oriladigan xududlarida (Misr, Mesopotamiya, Xindiston, Xitoy va boshka xududlar) shakllandilar.

Qadimgi Misrda fir'avnlr davrida 7 million aholi yashagan deb taxmin etiladi. Dunyo xududlarida umumiy aholi soni eramizdan avvalgi 5 ming yillikda 30 million atrofida bo'lgan. Ana shu davrda er yuzida aholi joylashuvining xozirgi areallari paydo bo'lgan.

Insonning yashash uchun kurashi borib-borib, jamiyat taraqqiyotida ijobiy (progressiv) o'zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlana borib, kishilar dastlab chorvachilik, keyinroq esa dexqonchilik bilan shug'ullanishga o'tdilar, ochlikka, kasalliklarga qarshi kurash boshladilar. Endi ular mehnat kilib moddiy maxsulotlar yaratadilar. Xunarmandchilik, savdo rivojlandi va shaharlar paydo bo'la boshladi. Inson hususidagi bu ijobiy o'zgarishlar ularning xayot sharoitini yaxshiladi.

Sinfiy jamiyatning shakllanishi, dunyo xududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi farqlar, aholi takror barpo bo'lish jarayoniga bevosiga ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi xududlarda yoppasiga tarqalgan epidemiyalar va urushlar oqibatida aholi o'rtasida o'lim nixoyatda yuqori bo'lgan, qishloqlar aholisiz kolgan. Ushbu davr uchun aholi takror barpo bo'lishida ibtidoiy jamiyatdagidek, umumiy bosh hususiyat - tug'ilishning yuqoriligi saqlanib qolgan edi. Quldorlik tuzumidagidek, ko'pbolalilik nafaqat urf-odatlar, balki davlat siyosati, din, ayniqsa, islom va induizm tomonidan ham qo'llab-kuvvatlanar edi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixidagi dastlabki "Madaniy-texnik revolyutsiya" ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish rivojlandi. Bu xol esa o'z navbatida dunyo aholisi sonining ko'payishiga olib keldi.

Eramizning boshlarida er shari aholisining soni 200-250 mln. kishi atrofida edi. Yuqorida qayd etilganidek, aholining asosiy qismi Rim imperiyasi, Xitoy va Hindistonda joylashgan.

*1-jadval*

<i>Sana, yillar</i>	<i>Dunyo aholisi</i>	<i>Sana</i>	<i>Dunyo aholisi</i>
Milodning boshi	252	1910	1755
400	205	1920	1811
800	224	1930	2070
1000	305	1940	2295
1200	400	1950	2527
1500	440	1960	3060
1600	578	1970	3727
1700	680	1980	4430
1750	728	1993	5510
1800	954	2000	6000
1850	1248	2005	6464
1900	1630	2025**	8039

**World Population Data Sheet, UNFPA**

**\*\* BMTbashorati.**

XI-XV asrlarda dunyo aholisining ma'lum qismi yuz bergan katta urushlar tufayli qirilib ketdi. Ayniqsa, bu urushlardan Sharqiy va Janubi-Sharqiy Evropa mamlakatlari aholisi katta talafot ko'rdi. Urushlar nafaqat aholining bevosiga qirilib ketishiga, balki xo'jaliklarni, ishlab chiqarishni izdan chiqarish hisobiga sodir bo'lgan ocharchilik sababli hayotdan bevaqt ko'z yumishlariga olib kelgan.

Agar dastlabki 500 yilda (1000-1500 yillar) er yuzi aholisi 135 millionga ko'paygan bo'lsa, 1500-1750 yillarda yoki 250 yilda esa bu ko'rsatkich 288 millionni tashkil kildi, ya'ni aholining o'sishi 2 marta tezlashdi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, aholining o'sishi yanada tezlashdi.

Dunyo aholisining 1000 yildan 2005 yilgacha bo'lgan o'sishiga nazar tashlasak, aholi eng tez ko'paygan davr XX asrdir. 1900-1950 yillarda er shari aholisi xar yili o'rtacha 0,90% dan ko'paygan bo'lsa, 1950-2000 yillarda bu ko'rsatkich 1,75% ga etdi.

Sayyoramiz aholisining ko'payib borishi uning aloxida xududlari bo'yicha ham farq qiladi (2-jadval).

Evropa aholisi. Evropada milodning boshlarida 35 million aholi yashagan, xolos. Dastlabki 1000 yil davomida, ya'ni milodning boshidan X asrga qadar aholi fakat 10 millionga ko'paygan.

## 2-jadval

<i>Hududlar</i>	<i>Aholi soni mln.kishi</i>				<i>Aholi salmog'i, %</i>			
	<i>Eramiz boish</i>	<i>1000 y.</i>	<i>2000 y</i>	<i>2005 y.</i>	<i>Eramiz boish</i>	<i>1000 y.</i>	<i>2000y.</i>	<i>2005 y.</i>
<b>Dunyo bo'yicha</b>	<b>230</b>	<b>305</b>	<b>6055</b>	<b>6464</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<b>Osiyo</b>	<b>155</b>	<b>195</b>	<b>3585</b>	<b>3831</b>	<b>67,4</b>	<b>63,9</b>	<b>59,3</b>	<b>59,3</b>
<b>Evropa</b>	<b>35</b>	<b>45</b>	<b>510</b>	<b>524</b>	<b>15D</b>	<b>14,8</b>	<b>8,4</b>	<b>8.1</b>
<b>Afrika</b>	<b>30</b>	<b>40</b>	<b>790</b>	<b>906</b>	<b>13,0</b>	<b>13,1</b>	<b>13,0</b>	<b>14,0</b>
<b>MDX mam-lakatlari</b>	<b>5</b>	<b>10</b>	<b>290</b>	<b>278</b>	<b>2,2</b>	<b>3,3</b>	<b>4,8</b>	<b>4,3</b>
<b>Amerika</b>	<b>4</b>	<b>14</b>	<b>850</b>	<b>892</b>	<b>1,8</b>	<b>4,6</b>	<b>14,0</b>	<b>13,8</b>
<b>Avstraliya va Okeaniya</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>30</b>	<b>33</b>	<b>0,4</b>	<b>0,3</b>	<b>0,5</b>	<b>0,5</b>

### **World Population Data Sheet, UNFPA 2005. P.131-134.**

Fan-texnikaning rivojlanishi tufayli Evropada ishlab chiqarishda qo'l kuchi o'rniga texnikadan foydalanish aholi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitining ma'lum darajada yaxshilanishiga olib keldi. Aholi soni oldingi davrlarga nisbatan tezroq sur'at bilan ko'paya bordi. Lekin Evropaning ba'zi xududlarida tarqalgan epidemiyalar (1624, 1639 yillardagi vabo), ocharchiliklar (Italiyada 1739-1741 yillardagi kartoshka ocharchiligi) va urushlar Turkiya va Bolqon urushi XVI asrda; 1618-1648 yillardagi 30 yillik urush, 12 yil davom etgan ispan merosi uchun urush 1701-1713 yillar) aholi sonining ko'payib borishiga salbiy ta'sir etgan albatta.


Shuningdek, Evropa aholi soni dinamikasiga emigratsiya ham ta'sir ko'rsatdi. Amerikaning kashf etilishi juda ko'p ispanlar, portugallar, inglizlar, gollandlar va frantsuzlarning Amerikaga «ko'chib ketishiga sabab bo'lgan. XVI-XVIII asrlarda Evropadan Amerikaga 2 milliondan ko'p aholi ketgan.

**Geodemografik vaziyatning hududiy jihatlari.** Hozirda dunyo aholisining tabiiy o'sishini 2 turga bo'lib o'rganiladi.

Aholi ko'payishining 1-tipi: "Demografik tanglik". Bu tur uchun tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining nisbatan past ekanligi xosdir. Bunga Shimoliy Amerika va Yevropa davlatlari misol bo'ladi.

### Jahon aholisi tabiiy o'sish surati

4-rasm



Manba: <http://chartsbin.com> saytidan olindi


Masalan: GFR, Daniya, Italiya, Avstriya, Vengriya, Bolgariya, Latviya. Bu mamlakatlarda tug'ilishning kamayishiga shahar aholisining tez ortishi (shaharlarda tug'ilish qishloqlardan kam bo'ladi), ayollarning ishlab chiqarishga ko'p jalb etilishi, erkaklar salmog'ining nisbatan kamligi (15 mln.kishiga Horijiy Yevropada), katta yoshdagilar salmog'ining ortib, kichik yoshdagilar salmog'ining kamayishi sabab bo'ladi. Aholining tabiiy ko'payishi har 1000 kishiga 4 ta va

undan kam. Masalan: Germaniyada oilaning o`rtacha me`yori 2,7 kishi. Har 4 oilaning 1tasi farzandsiz. Rossiyada ham tabiiy ko`payish ancha past bo`lib, ko`p bolali oilalarning kamayishi kam bolali oilalarning ko`payishi kuzatilinmoqda. Oilaning o`rtacha me`yori 3,2 kishini tashkil etadi. Bu mamlakatlarda tug`ilishning va tabiiy ko`payishning o`shishiga qaratilgan demografik siyosat olib borilmoqda.

Iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlarda tug`ilish sur`atining past ko`rsatkichga ega ekanligi jahon aholisidagi salmog`ini kamayib borishiga olib keladi (5-rasm).

### **Jahon aholisi soni o`sb borishi (rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda)**

**5-rasm**



**Manba: [www.wordometers.info](http://www.wordometers.info) saytidan olindi**

Yevropa mamlakatlarida kuzatilayotgan demografik inqiroz tezkor choralar ko`rilmas ekan, ko`hna qit`aning tub aholisi qisqa vaqt ichida umuman qilib ketishi hech gap emas. Statistic ma`lumotlar tahlili shuni ko`rsatadiki 1960 yil rivojlangan mamlakatlar aholisi 750 millionni tashkil etgan. So`nggi 50 yil ichida esa ushbu mamlakatlar aholisi jadal sur`atlarda kamayib bormoqda. 2010 yili faqat

Albaniyagina tug'ilish darajasida o'sishni ko'rsatdi. Yevropaning qolgan mamlakatlari esa, oddiy qilib aytganda, kamayib bormoqda.

1960 yili Yevropaliklar jahan aholisining to'rtidan bir qismini tashkil etardi, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich oltidan bir qismga tushib ketdi, 2050 yilga borib esa ular Yer aholisining atigi o'ndan bir qismini tashkil etadi<sup>2</sup>. Agar hozirgi demografik ko'rsatkichlar saqlanib qolgudek bo'lsa va immigratsiyani hisobga olmasak, XXI asr oxiriga borib Yevropa aholisi 207 million bo'ladi. Germaniyaning hozirgi 82 million aholisidan XXI asr o'rtalarida 50 million, 2100 yilda esa 38,5 million qoladi. Asr oxirlariga borib Italiya aholisi 41 millionga tushib qoladi, Ispaniya aholisining to'rtidan bir qismi, umumiyevropa aholising esa uchdan ikki qismi yo'q bo'lib ketadi.

Aholi yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilinganda: 2000 yili Yevropada 15 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan 494 million kishi istiqomat qilardi, XXI asr o'rtalariga borib esa bu raqam 365 millionga tushib qolishi kutilmoqda. Mexnat resurslari va nafaqaho'rlar o'rtasidagi nisbat esa 50 yil ichida quyidagicha ko'rinish kasb etishi mumkin: 5:1 dan 2:1ga tushib ketadi. Aholining qarib borishi hozirdanoq rivojlangan davlatlar byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Aholi tarkibida qariyalar salmog'ini ortib borishi Yevropada ischi kuchining kamayib borishi va o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Bunday salbiy holatning oldini olish uchun esa Yevropa davlatlari immigratsiyaga etiborni kuchaytirishi lozim. Immigrantlar asosan iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlardan bo'lishi tabiiy hol. Hususan, Yevropaga, umuman G'arb davlatlariga musulmon immigrantlar soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Ayni paytda Fransiyada 5,8 million, Buyuk Britaniya 1,5 million, AQSHda 7 million, Italiyada 1 million, Germaniyada 1,5 million musulmonlar istiqomat qiladi. Yevropa Ittifoqidagi jami musulonlar soni esa 15 millionni tashkil etadi va 2015 yilga borib bu raqam 40 millionga yetishi kutilmoqda.

---

<sup>2</sup> <http://gazetteci.tripod.com/id3.html>

Aholi ko`payishining 2-tipi: “Demografik faollik yoki portlash”. Aholi ko`payishining bu turi uchun tug`ilish va tabiiy ko`payishning juda yuqori va o`limning kamligi xosdir. Aholi ko`payishining bu turi rivojlanayotgan davlatlar uchun xos bo`lib, asosiy sabablari: mustaqillikdan keyingi hozirgi zamon tibbiyoti, sanitariya-gigiena yutuqlaridan keng foydalanish, yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish, iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi, qishloq xo`jaligining usturligi (qishloq xo`jaligida bolalar kuchidan foydalanish), savodsizlik, sanitariya madaniyatining etarli emasligi, ayollarning oilada va jamiyatda erksizligi, nikohga erta kirishi, ko`p bolalikni rag`batlantiruvchi diniy, iqtisodiy (matgeroy 10 ta bolali), milliy, mahalliy odatlar hisoblanadi.

Tug`ilish va tabiiy ko`payish yuqori bo`lgan mamlakatlar asosan Osiyo, Afrika davlatlardir. Bularda oilaning o`rtacha miqdori 6 kishi. Aholining tabiiy ko`payishi 1000:30 kishi. 90 yillari tug`ilish (1000:54) va tabiiy ko`payish (1000:41) eng yuqori bo`lgan davlat Keniya bo`lgan. Aholi ko`payishining sur`ati shunday saqlansa 17 yilda mamlakat aholisi 2 barobar ko`payadi. (taqqoslang: Buyuk Britaniya aholisining 2 hissa ko`payishi uchun 630 yil kerak bo`ladi)

Demografik portlash XX asrning 60 yillari paydo bo`lgan. Demografik portlash asosan Horijiy Osiyo mamlakatlarida kuzatilmoqda. Ma`lumki, aholisi soni 100 mln dan ortiq bo`lgan mamlakatlarning 7 tasi Osiyoda joylashgan. Bu mamlakatlarda demografik siyosat aholi tabiiy ko`payishini kamaytirishga qaratilgan (hatto konstitusiyaga kiritilgan).

Demografik siyosat – Ma`muriy (er bermaslik, ishga olmaslik, uy joy bilan yaxshi ta`minlamaslik yoki aksi), iqtisodiy (oylikni to`la bermaslik, sosial ta`minotni yaxshilamaslik, bezdetniy, geroy ona va h.k. yoki aksi) targ`ibot va boshqa tadbirlar aholining tabiiy ko`payishiga o`zi hohlagan yo`nalishda ta`sir ko`rsatishdir.

Dunyo aholisining tabiiy o`shishi regionlar bo`yicha:

- Shimoliy Amerikada 1000/5 kishi.
- Lotin Amerikasida 1000/ 19 kishi.
- Horijiy Yevropada 1000/ 2 kishi.

- Horijiy Osiyoda 1000/ 18 kishi.
- MDH da 1000/7 kishi.
- Afrikada 1000/ 30 kishi.
- Avstraliya va Okeaniyada 1000/12 kishini tashkil etadi.

Ko'rinib turibdiki, tabiiy o'sish asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Jahon aholisi soni asosan rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga ko'paymoqda. Rivojlangan davlatlarda esa aholi soni deyarli o'zgarmaydi. Yer yuzida aholi soni juda tez ko'payib borayotgani tufayli BMT iqtisodchilari avvalgi prognozlariga o'zgartirish kiritishlariga to'g'ri keldi. Bashoratlarga ko'ra, 2028 yilga borib Hindiston aholi soni bo'yicha Xitoydan o'tib ketadi. 2028 yilga borib ushbu mamlakatlarning har birida aholi soni 1,45 milliard kishiga etadi tahmin qilinmoqda. Shundan keyin Hindiston aholisi ko'payishda davom etsa, Xitoyda aksincha qisqarishni boshlaydi. Ekspertlarning fikricha odamlar sonining ko'payib borishiga rivojlanayotgan mamlakatlarda tug'ilish sonining ortishi va dunyo bo'yicha umr ko'rish davomiyligining uzayib borayotgani sabab bo'lmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra jahon aholisining 48% tug'ilish ko'rsatkichi past bo'lgan mamlakatlarda yashaydi. Bunga Islandiyadan tashqari Yevropaning barcha davlatlari, Osiyoning 19ta davlati, Amerika qit'asidagi 7 mamlakat, yana ikkita Afrikadagi va bitta Okeaniyadagi davlat kiradi. Tug'ilish eng kam bo'lgan yirik davlatlarga Braziliya, Vetnam, Xitoy, Rossiya, AQSh va Yaponiyani misol keltirish mumkin.

Eng ko'p tug'ilish Afrika mamlakatlarida, Afg'oniston va Timorda kuzatilmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi 1950-1955 yillardan to 2005-2010 yillarga qadar 47 yildan, 69 yilga uzaygan. Aholining o'rtacha umr ko'rish ham kelajakda ortib borishi kutilmoqda.

BMT ekspertlarining ma'lumotlariga ko'ra jahon aholisi tabiiy o'sish sur'ati kelajakda pasayib borishi bashosrat qilinmoqda. Lekin shunday bo'lsada, iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi tabiiy o'sish sur'atida tafovut kuzatiladi.

**Tayanch atamalar:** demografik bashorat, aholi zichligi, dunyo aholisi, aholi soni dinamikasi, demografik tanglik, tug`ilish, o`lim, BMT

**Nazorat savollari:**

1. Aholi ko'payishining qanday tiplarini bilasiz?
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholi ko'payishining qaysi tipiga kiradi?
3. Demografik siyosat nima?
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qanday demografik siyosat olib borilmoqda?

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

**Asosiy adabiyotlar**

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
2. Bo'rieva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
3. Корылов V.A. География населения. Учебное пособие. – М.: 1999. – 124 с.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

4. Abdalova Z.T., Tojiev Z.N. Iqtisodiy geografiya. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», - 2013. 212 bet.
5. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
6. Ata-Mirzaev O.B. Narodonaselenie Uzbekistana. – T., 2009.
7. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – T., 2002.
8. Bo'rieva M.R., Tojiev Z.N. Aholi geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
9. Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T., Universitet, 1997.-157 b.
10. Simagin Yu.A. Territorialnaya organizatsiya naseleniya. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya “Dashkov i K”, 2004. – 244 s.
11. Soliev A.S., Bo'rieva M.R va boshqalar. Qishloq joylar demografiyasi. – T., 2005. - 140 b.

12. Tojjeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.
13. Tojjeva Z.N. Statistikaning umumiy nazariyasi. – T., 2000.-58 b.
14. Tojjeva Z.N. Iqtisodiy va demografik statistika. – T., 2002.-160 b.
15. “Aholi geografiyasi” fanidan o‘quv-uslubiy majmua.- 2013.

**Elektron manbalar:**

1. <http://www.demoscope.ru>.
2. <http://stat.uz>.